



EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARBLIGI

Abralov Umidjon Alisher o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarining dolzarbligi yoritilgan. Unda inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, ularning aholi salomatligi va atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri hamda ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat siyosatining o'rni, huquqiy-me'yoriy asoslar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, ekologik siyosat.

KIRISH

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — bu ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni ishonchli muhofaza qilishdir. Hozirgi kunda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, jumladan, iqlimning keskin o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, havo, suv va tuproqning ifloslanishi, tabiiy resurslardan me'yoridan ortiq foydalanish kabi omillar ko'plab davlatlarni ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishga majbur qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgach, atrof-muhitni asrash sohasida qator muhim institutsional va huquqiy islohotlarni hayotga tatbiq etdi. Jumladan, ekologik boshqaruv tizimi shakllantirilib, uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan normativ va tashkiliy mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Ushbu ishda ekologiya sohasida umumiy vakolatga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlarining tashkil etilishi, ularning funksiyalari, huquqiy asoslari,



institutsional tuzilmasi, shuningdek, xalqaro tajriba bilan solishtirish asosida baholash va takliflar berish ko'zda tutilgan. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining amaliy faoliyati asosiy manba sifatida olinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Konstitutsiyada O'zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo'lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Shu o'rinda amerikalik huquqshunoslar mamlakat Konstitutsiyasini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi "bilvosita manba" sifatida ta'riflaydilar. AQShning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo'lgan barcha umumiy konstitutsiyaviy normalarini uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo'yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2) ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSh ekologik qonunchiligida asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo'llashni nazarda tutadi.

AQSh Konstitutsiyasidan farqli ravishda mamlakatimiz Asosiy qonunida ijtimoiy-siyosiy tuzdagi normalar bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus ekologik me'yorlar ham mavjud. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus ekologik normalari tizimi quyidagicha: fuqarolarning ekologik burchi



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

(49-modda); mulkdan foydalanishning ekologik talablari (54-modda); davlat ekologik siyosatini amalga oshirish prinsiplarini belgilab beruvchi normalar (79-modda); mahalliy hokimiyat organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari (123-modda).

MUHOKAMA

Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan; ikkinchidan, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Ekologiya huquqi O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida alohida fan tarmog'i sifatida 1980-yildan boshlab o'qitila boshlandi.

Demak, ekologiya huquqi huquq tizimining yagona bir tarmog'i hisoblanib u tabiat, jamiyat va umuman insoniyat o'rtasidagi o'zaro ekologik munosabatlarni tartibga soladi, uning huquqiy-ekologik prinsiplarini, normalarini o'rganuvchi fan sifatida shakllanib boradi. Chunki, inson tabiatdan foydalana borib, uning geografik muhitini o'zgartiradi, tabiiylikka putur yetkazib, rivojlanish muvozanatini buzadi, tabiiy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ekologik salbiy ta'sirning oqibati esa tabiatdagi o'zaro mutanosiblikka zarar yetkazib, biosfera va inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi muvozanat me'yorini saqlab qolish, ona tabiatdan va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilishga juda katta e'tibor berish insoniyat oldidagi dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Zero, hozirgi sharoitda, tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash insoniyatning ongli faoliyati bo'lmog'i lozim.

Shunday ekan, ekologiya huquqi tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ochib beradi, boshqa ekologiya huquqi institutlarini kengroq o'rganish uchun nazariy asos hisoblanadi, ekologik siyosatning shakllanishiga va rivojlanishiga keng ta'sir ko'rsatadi, ekologik-huquqiy ong va tafakkur hamda ekologik-huquqiy ma'naviyat va madaniyatning negizini yaratadi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Ekologiya huquqining huquq tizimida mustaqil fan tarmog'i sifatida tan olinishi uning predmeti va metodiga oid maxsus belgilaridir. Ekologiya huquqi fanining predmeti u o'rganadigan masalalarning majmui hisoblanadi. Demak, ekologiya huquqi fanining predmeti - tabiat, jamiyat va insoniyat (kishilar) o'rtasidagi o'zaro tabiiy mutanosiblikni saqlash hamda ekologik huquqiy munosabatlarni mustahkamlashdan iborat [1].

Shuningdek, Avstriya, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Litva, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Estoniya kabi davlatlarda fuqarolar va davlatning ekologiya sohasidagi huquq va majburiyatlari aniq-ravshan belgilab berilgan. Xususan, Gretsiya Konstitutsiyasi (1975 y.) 24-moddasida "Tabiiy va madaniy atrof muhitni muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi", deb belgilangan. Avstriyada esa, "Atrof muhitni har tomonlama muhofaza qilish to'g'risida"gi Federal Konstitutsiyaviy qonun (1920 y.) amal qilishi ushbu mamlakatning atrof muhitni kompleks muhofaza qilishga intilayotganligidan dalolat beradi. GFR Konstitutsiyasi 20a-moddasida ham davlat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi, bugungi avlod kelajak avlod oldida ma'sul ekanligi uqtirilgan. Italiyada ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha vazifa davlat zimmasiga yuklangan. Italiya Konstitutsiyasi 9-moddasida (1947 y.) ta'kidlanishicha, "Respublika mamlakat tabiatini muhofaza qiladi". Hindistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilashga harakat qilishga majbur ekanligini hamda bu har bir Hindiston fuqarosidan talab qilinishini belgilaydi [2].

NATIJALAR

Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy-ekologik normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo'llash madaniyati ekologik barqaror rivojlanishga imkon berishini yana bir karra tasdiqlaydi. Xuddi shuningdek, qiyosiy tahlil ko'rsatganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy ekologik-huquqiy normalar eng ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga mos bo'lib, mamlakatimizda



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

barqaror rivojlanishni ta'minlashga, atrof muhit musaffoligini saqlashga, tabiatni hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvidan maqsad tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish, bajarilishini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi va ekologik qonunlarga qat'iy rioya etish, inson hayoti uchun qulay ekologik muhit yaratish, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda barcha tabiat boyliklarini kelajak avlod uchun hamda mustaqil davlatimiz ravnaqi uchun ko'z qorachig'idek saqlashdan iborat bo'lishi kerak [3].

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tizimi — bu ekologik muammolarni bartaraf etish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik qonunchilikni amalda ro'yobga chiqarish bo'yicha ixtisoslashtirilgan hamda umumiy vakolatli organlar faoliyatining yaxlit va samarali tizimidir.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deb vakolatli davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati tushuniladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini shakllantirish orqali davlat o'zining ekologik vakolatini va ekologik siyosatini amalga oshiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat tabiiy resurslarning mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tassarruf etish huquqini amalga oshirishadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati atrof muhit va tabiiy resurslar to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan [4].

Xususan, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'lida qator institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2019-yilda tashkil etilgan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vazirlik maqomiga ko'tarilib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi sifatida qayta tashkil etilishi bu boradagi muhim bosqichlardan biridir. Biroq ekologik boshqaruv sohasida faqatgina ushbu ixtisoslashtirilgan idora emas, balki umumiy vakolatga ega bo'lgan davlat organlari, ya'ni Oliy Majlis,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy ijro etuvchi organlar, hamda boshqa tegishli davlat tuzilmalarining ham o'z o'rni va mas'uliyati mavjud. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda ekologik muammolarning keskinlashuvi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zarurati ekologik boshqaruv tizimini chuqur tahlil qilishni, mavjud kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, ushbu tahliliy ish ekologik boshqaruv sohasidagi mavjud holatni baholash, takomillashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ekologiya huquqi: Darslik / J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. - 16 b.
2. https://constitution.uz/oz/pages/Ekologik_munosabatlar
3. Ekologik huquq. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Yusuf Shodimetov, Jumanazar Xolmo'minov. Toshkent – 2015. 96-bet.
4. Ekologiya huquqi. H.I.To'xtashev, O'quv qo'llanma. T.: TDYU nashriyoti. "Lesson press" nashriyoti, 2022-yil. 34-bet.